

O'SMIRLARDA MA'NAVİY- AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING
PSIXOLOGIK JIXATLARI

Beginkulov Umidjon Boirovich

GulDu mustaqil tadqiqotchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18161765>

Annotatsiya. Ushbu maqola o'smirlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning psixologik jihatlarini tahlil qiladi. O'smirlik davri shaxsiyatning rivojlanishi uchun muhim bosqich bo'lib, bu davrda o'smirlar o'z identifikatsiyasini, emotsional holatini va ijtimoiy munosabatlarini o'rganadilar. Maqolada o'smirlarning psixologik xususiyatlari, masalan, mustaqillik istagi, emotsional o'zgaruvchanlik va ijtimoiy ta'sirlar keltirilgan. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish jarayonida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan psixologik asoslar, jumladan, boshqaruv va nazorat, qadriyatlar, amaliy tajribalar va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida urg'u berilgan. Maqola o'smirlarning ichki dunyosini tushunish va ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishda ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyat vakillarining birgalikdagi rolini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqot o'smirlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining murakkabligini va uning psixologik jihatlarini yoritadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, emotsiya, qadriyatlar, o'smirlik, boshqaruv tizimi, ijtimoiy munosabat, ruhiy holat, o'qituvchi, ota-ona, yo'nalish.

Аннотация. В данной статье анализируются психологические аспекты формирования духовно-нравственного воспитания у подростков. Подростковый возраст является важным этапом развития личности, в течение которого подростки усваивают свою идентичность, эмоциональное состояние и социальные отношения. В статье представлены психологические характеристики подростков, такие как стремление к независимости, эмоциональная изменчивость и социальные влияния. Также подчеркиваются психологические основы, которые следует учитывать в процессе формирования духовно-нравственного воспитания, включая управление и контроль, ценности, практический опыт и развитие социальных навыков. В статье подчеркивается совместная роль родителей, учителей и представителей общества в понимании внутреннего мира подростков и направлении их в правильном направлении. Данное исследование проливает свет на сложность процесса формирования духовно-нравственных ценностей у подростков и его психологические аспекты.

Ключевые слова: духовное воспитание, нравственное воспитание, эмоции, ценности, подростковый возраст, система управления, социальные отношения, психическое состояние, учитель, родители, руководство.

Abstract. This article analyzes the psychological aspects of the formation of spiritual and moral education in adolescents. Adolescence is an important stage for the development of personality, during which adolescents learn their identity, emotional state and social relationships. The article presents the psychological characteristics of adolescents, such as the desire for independence, emotional variability and social influences. It also emphasizes the psychological foundations that should be taken into account in the process of forming spiritual and moral education, including management and control, values, practical experience and the development of social skills.

The article emphasizes the joint role of parents, teachers and representatives of society in understanding the inner world of adolescents and guiding them in the right direction. This study sheds light on the complexity of the process of forming spiritual and moral values in adolescents and its psychological aspects.

Keywords: spiritual education, moral education, emotions, values, adolescence, management system, social relations, mental state, teacher, parents, direction.

Bugungi axborot asrida dunyoning bir nuqtasida yuz berayotgan voqea va hodisalar to'g'risida boshqa bir nuqtada turib xabardor bo'lish mumkinligi hech kimga sir emas. Bu esa dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlarning yanada globallashtirishga imkon yaratib bermoqda.

Axborot asrida yoshlar ongiga o'z ta'sirini o'tkazuvchi bu kabi tashqi va ichki omillar oqibatida, hali o'z imkoniyatlarini to'liq anglab yetmagan yosh avlod o'rtasida noxush xolatlarining bo'lib turganligi to'g'risida ma'lumotlarni uchratamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-2021 – yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" da keltirib o'tilgan qator yo'nalishlari doirasining to'rtinchi ya'ni "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari"ning to'rtinchi bandida ham ta'lim va fan sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Chunonchi, komputer texnikasi va o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish kabi muhim ko'rsatmalar berilgan. Bunga yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surildi.

Ushbu besh tashabbusning uchinchi aholi va yoshlar o'rtasida komputer texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. Shu o'rinda Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi fikrini keltirib o'tmoqchimiz: "Tarbiya – Pedagogika, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdir".

Shunday ekan ma'naviy tarbiyasi yuzasidan taklif etuvchi muayyan axloqiy fazilatlar yoshlarda kelajakka nisbatan ishonch hislarini to'g'ri shakllanishida va ularning barkamol bo'lib unib-o'sishida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. O'sib borayotgan shaxsning ma'naviy tarbiyasini shakllantirish muammosi ko'p qirrali bo'lganligi uchun, ushbu tushunchani din psixologiyasi, pedagogik psixologiya, yosh davrlari psixologiyasi, differensial psixologiya kabi psixologiyaning turli tarmoqlari o'rganib kelmoqda.

O'smirlik davri – shaxsning jismoniy, ruhiy va ma'naviy jihatdan rivojlanishida muhim bir bosqichdir. Bu davrda o'smirlar o'z shaxsiyatlarini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni o'rganish va axloqiy qadriyatlarni qabul qilish jarayonida bo'ladilar. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish esa, o'smirlarning ichki dunyosini boyitish, ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada o'smirlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning psixologik jihatlari ko'rib chiqiladi.

O'smirlik yoshi-o'z xatti-harakatlarida suyana boshlaydigan dunyoqarashning, ma'naviy e'tiqod, prinsip hamda ideallarni baholash mulohazalari tizimining tarkib topish davridir.

Agar bola kichik maktab yoshi davrida kattalarning, o'qituvchilarning va ota-onalarning bevosita ko'rsatmalari bilan yoki o'zining tasodifiy, impulsiv istaklari ta'siri bilan harakat qilgan bo'lsa, endilikda uning uchun o'z xatti-harakatlarining prinsipi, o'zining qarashlari, e'tiqodlari asosiy ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi va tarbiyachi shuni nazarda tutishi lozimki, xuddi ana shu yoshda axloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo'yiladi. Avvalo biz so'z boshimizda axloq so'zi mazmun-mohiyati to'g'risida fikr yuritsak "Axloq"(arabcha –xulq-atvor ma'nosini bildiradi) -ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir. Axloq-ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismoniy yetukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Axloq jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soladi va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari ifodalanadigan maqsadlarni ilgari suradi. Kamolotning krizislar, tanazzullar bosqichi bo'lmish o'smirlik davrida har bir o'smir qay usulda axloqiy tajriba orttirishiga, qanaqangi axloqiy faoliyatni amalga oshirishiga qarab uning shaxsi ham tarkib topa boshlaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o'smirlik yoshi axloqiy jihatdan intensiv rivojlanish yoshi bo'lganligi tufayli ko'pincha o'smir ongida, tarbiyachi o'quvchi ongiga singdirmoqchi bo'lgan xislatlarga qarama-qarshi axloqiy tushunchalar tarkib topishi mumkin.

O'smirlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish psixologik jihatdan ularning beqaror hissiyotlari, "men" konsepti va ijtimoiy moslashuv jarayonlari bilan bog'liqdir. Bu davrda axloqiy tushunchalar, ijtimoiy me'yorlar va shaxsiy qadriyatlar shakllanadi, bunda tengdoshlar ta'siri, ijtimoiy tarmoqlar va motivatsiya yetakchi rol o'ynaydi. Tarbiyaning samaradorligi o'smirning ongli faolligiga va axloqiy xatti-harakatlarni tushunishiga bog'liq.

O'smirlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy psixologik jihatlari:

Shaxsiy o'zlikni anglash: O'smirlik davrida ma'naviy qadriyatlar shaxsiy dunyoqarash sifatida shakllanadi.

Emotsional beqarorlik: Hissiyotlarning tez o'zgarishi axloqiy me'yorlarni qabul qilishga ta'sir ko'rsatadi.

Tengdoshlar ta'siri: Axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishda guruh (tengdoshlar) muhiti oiladan ko'ra muhimroq bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar ta'siri: Zamonaviy o'smirlar tarbiyasida axloqiy dunyoqarashga ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta'siri yuqori.

Motivatsion-irodaviy soha: Ma'naviy tarbiya o'smirda o'z xatti-harakatlarini boshqarish, irodaviy sifatlarni shakllantirish va mas'uliyatni his qilishni o'z ichiga oladi.

O'smirlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, motivatsiya va axloqiy tushunchalar darajasini oshirish maqsadga muvofiqdir.

O'smirlik davri psixologik jihatdan bir qator xususiyatlarga ega:

1. Identifikatsiya va Rol O'ynash: O'smirlar o'zlarini boshqalar bilan taqqoslaydilar, turli ijtimoiy rollarni o'zlashtirishga harakat qiladilar. Bu jarayon ularning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

2. Emotsional O'zgaruvchanlik: O'smirlarda emotsiyalar kuchli ifodalanadi. Bu davrda o'smirlar hissiyotlarini boshqarishni o'rganishlari zarur, chunki bu ularning axloqiy qarorlariga ta'sir qiladi.

3. Mustaqillik Istagi: O'smirlar mustaqil fikrlashga intilishadi. Ular o'z qarorlarini qabul qilishda axloqiy me'yorlarni hisobga olishlari kerak.

4. Ijtimoiy Ta'sir: O'smirlar do'stlari, oila va jamiyatdan katta ta'sirlanadilar. Ularning axloqiy qadriyatlari ko'pincha atrof-muhit ta'siri ostida shakllanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish jarayonida quyidagi psixologik asoslar e'tiborga olinishi kerak:

1. Boshqaruv va Nazorat: O'smirlarga o'z emotsiyalarini boshqarish va nazorat qilishni o'rgatish, ularda axloqiy mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

2. Qadr-qimmat va Qadriyatlar: O'smirlarga insoniyatning umumiy qadriyatlarini, masalan, adolat, samimiyat, hurmat kabi tushunchalarni o'rgatish muhimdir. Bu qadriyatlar ularning shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi.

3. Tajribalar va Amaliyot: O'smirlar uchun amaliy tajribalar, masalan, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish, ularning axloqiy qarorlarini mustahkamlashda yordam beradi.

4. Ijtimoiy Ko'nikmalarni Rivojlantirish: O'smirlarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, ularning jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Bu ko'nikmalar orqali ular to'g'ri axloqiy qarorlar qabul qilishni o'rganadilar.

O'smirlar ma'naviy qiyofasini ijtimoiy-korreksiyalashda ularning quyidagi oilalarda chiqqanligiga e'tibor qaratish darkor:

-Oilaviy an'analar asosida o'smir ma'naviy qiyofasini shakllantira oladigan va ularni boshqa ota-onalar bilan bo'lishadigan oilalar.

-O'smirning o'zi ichki shaxsiy muammolarini hal qilishga majbur bo'lgan oilalar.

Bunday oilalarda ota-onalar psixologik-pedagogik ma'rifatga muhtoj bo'ladilar.

Bunday oilalarda har qanday tarbiya maskanlarining o'rni bor. O'smirning axloqiy, psixologik, psixik, jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va uning o'zi hamda boshqalarga nisbatan tajovuzkorlikni qo'zg'aydigan oilalar.

Bunday oilalar o'smirda ma'naviy qiyofaning me'yorda shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Bunday ota-onalar bolalarni begonalashtirishgacha bo'lgan ota-onalik axloqini korreksiyalashning maxsus kurslarini o'tashga muhtoj bo'ladilar. O'smirlar ma'naviy qiyofasini ijtimoiy korreksiyalash sub'ektlari sifatida oila a'zolari, maktab jamoasi va ta'limiy-tarbiyaviy jamoatchilik guruhlar, tashkilotlari, submadaniyat va uning o'zi chiqadilar.

O'smirlar ma'naviy qiyofasini shakllantirishda etnopedagogika vositalarining asosiy tarkibiy qismlari bo'lib quyidagilar yuzaga chiqadi:

1. O'smir bilan: o'zaro aloqani qo'llab -quvvatlashga tayyorlik; axborotga oid -olam, ta'lim va tarbiya to'g'risidagi bilimlarni olish va berish; muvofiqlashtiruvchi -faoliyatda kelishilgan va oqilona harakatlar; shaxsiy -ishonchli, yaqin odamlarni tanlash; ishga oid -muloqotning pragmatik yo'nalganligi va h.k. vazifalarni bajaradigan muloqot. O'smir bilan inson parvarona o'zaro harakatlanish quyidagilarni: o'smir shaxsiga ko'ngilchanlik emas, balki shaxs sifatida hurmat bilan munosabatda bo'lishni; uning xususiyatlarini borlik sifatida tan olishni nazarda tutadi.

2. Kattalarning o'smirlar bilan hamkorlik sifatidagi faoliyati shaxs shakllanishidagi asosiy omil hisoblanadi. Faoliyat turli yondashuvlarga asoslanadi, biroq o'smirning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda uning shaxsiga germeneytik yondashuv, ya'ni o'smirning tafakkuri, tuyg'ulari, kechinmalarini chuqur tushunish va sinergetik yondashuv-turli omillar ta'sirida o'smirning o'z-o'zini uyushtirishi alohida rol o'ynaydi. O'smir u yoki bu darajada faoliyatning har xil –o'quv, ijtimoiy, gedonik, sportga oid. badiiy, ijodiy, mehnatga oid va h.k. turlariga jalb qilingan.

Faoliyatning har xil turlarida o'smirlar ma'naviy qiyofasini shakllantirishda ta'limiy-tarbiyaviy muassasalarga yetakchi va yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi rol ajratiladi. O'smirlar bilan muloqot va faoliyat ularning hayotiy faoliyati muhitida tarbiyalovchi sharoitni yaratishda muayyan natijani olishga yo'naltirilgan. Arap o'smir sezilarli xususiyatlarni namoyon etsa, nisbiy barqaror muhit (oilalar, maktab, qo'shimcha muassasalar va h.k.) kabi tabiiy norasmiy muhit (submadaniyat, qarindoshlik aloqalari, qo'shnilar, virtual do'stlar va h.k.) ham o'z-o'zidan o'smirning individualliligining yuzaga chiqishiga ma'lum bir hissa qo'shadi.

O'smirlar bilan muloqotda xalq pedagogikasining ma'naviy qiyofani shakllantirish bo'yicha ta'limiy muassasalarning o'quv va o'quv faoliyatidan tashqaridagi tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishning asosiy pedagogik shartlari quyidagilar bo'ladi:

- etnomadaniy qadriyatlarni o'zlashtirish uchun rag'bat sifatida o'quv-tarbiyaviy jarayonga pedagogik vaziyatlarni kiritish (uyali, dialogli, loyihali);

- o'zbek xalqining madaniyati tarbiyaviy imkonida o'smirlarda ma'naviy qiyofani shakllantirishga ko'maklashuvchi o'quv-ijodiy vazifalarni hal qilish bo'yicha innovasion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish (mahorat darslari, loyihaviy taomillar, ishga oid o'yinlar, portfolio);

- ta'limiy borliqda tarbiyalovchi muhitni yaratish: o'quvchilarning qadriyatli orientasiyalari xarakterini aniqlash, an'anaviy va zamonaviy oilaviy qadriyatlarni rag'batlantiruvchi muvaffaqiyat vaziyatini yaratish orqali ularning ma'naviy qiyofasini shakllantirish;

- pedagogning o'smir bilan o'zaro harakatlanishda uning oilaviy xususiyatlarini va u tarbiyalangan etnomadaniy muhitni inobatga olgan holda shaxsiy etnik va yarim madaniy kompetensiyalarini takomillashtirish asosida o'smirlar ma'naviy qiyofasini tarbiyalash masalalarida tarbiyaviy kompetentlik darajasini oshirish;

- ota-onalar uchun umumiy o'qitishni ta'minlash psixologik-pedagogik ma'rifat, tajriba almashish bo'yicha konferensiyalar, davra suhbatlari, seminartreninglar, munozaralar va oilaning etnomadaniy xususiyatlariga muvofiq boshqa tadbirlar;

- o'smirlar ma'naviy qiyofasini targ'ib qilish va o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltirilgan etnomadaniy merosga asoslangan ta'limning maxsus dasturlari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ta'lim muassasalari amaliyotiga tatbiq etish. Shunday qilib, o'smirlar ma'naviy qiyofasini ijtimoiy korreksiyalashning pedagogik strategiyasi -bu pedagoglarning shaxsiy etnomadaniy va yarim madaniy kompetensiyalarini oshirish, o'quvchilarning turli qirrali faoliyatini uyushtirish va oilalar bilan bolalarni tarbiyalashda an'analar, qadriyatli orientasiyalarni qo'llash sohasida ota-onalarning psixologik-pedagogik savodxonligini shakllantirish bo'yicha ishlarni olib borishni oshirish yuzasidan integrasiyalashgan jarayon.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jamiyatimizning katta va kichik a‘zolarida ayniqsa, yoshlar ongida ma‘naviy tarbiyani shakllantirishda milliy va ma‘naviy qadriyatlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat taraqqiyoti keng dunyoqarashli, qobiliyatli, iste’dodli kadrlar orqali yuz beradi. Yoshlar dunyoqarashining yuksalishi natijasida ularning o‘z kuchi, imkoniyati bilan ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot, demokratik, fuqarolik jamiyati qurishga bo‘lgan ishonchi kuchayadi. Har bir mamlakat o‘z milliy taraqqiyotida yetishib kelayotgan avlodining ko‘plab fazilatlarni qamrab olgan ijtimoiy psixologiyasiga tayanadi.

Qadimgi sharq va g‘arbda, o‘rta asrlar davrida, fanlar klassifikatsiyalanishining taraqqiyot bosqichlarida, industrial va bugungi postindustrial, axborotlashgan jamiyatlarda ham o‘rinbosar avlod ishonchi, e‘tiqodi, psixologiyasi va dunyoqarashi masalasini to‘g‘ri hal qilishga bosh masala sifatida qaralgan. Yetuk, bilimdon avlodni yetishtirish uchun ularning dunyoqarashi va tafakkur tarzini shakllantirishga, o‘rta, maxsus va oliy o‘quv yurtlaridagi tahsiliga e‘tibor berilgan. Bugungi davr ham shunday talabdan holi emas. Faqat uni o‘z vaqtida ko‘ra bilish, davr imkoniyatlariga muvofiqlashtirib borish katta muvaffaqiyatlarga olib keladi. Ijtimoiy tarmoq yutuqlaridan foydalanish barobarida yosh avlodning ma‘naviy dunyosini shakllantiruvchi tarbiya metodlaridan foydalanish lozimligi begungi kunning ham e‘tiborga molik jabhalaridan biridir.

O‘smirlarda ma‘naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish – bu murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u psixologik jihatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. O‘smirlarning ichki dunyosini tushunish, ularning emotsiyalarini boshqarish va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularda to‘g‘ri ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish mumkin. Bu jarayon nafaqat o‘z shaxsini anglashda, balki jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar, o‘qituvchilar va jamiyat vakillari birgalikda ushbu jarayonda faol ishtirok etishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Beshinchi jild - t.: “ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2008.- 592 b.
2. A.Avloniy. “Turkiy Guliston yohud ahloq”.O‘qituvchi nashriyoti,Toshkent.1992.B-2.
3. E.G‘oziev. Ontogenez psixologiyasi-Nazariy-eksperimental tahlil. MonografiyaToshkent: Ўз.Мил. Универ., 2010.-Б 222
4. E.G‘oziev. Umumiy psixologiya-Toshkent: Ўз.Мил. Универ., 2012.-Б 312
5. T.S.Safarov va boshq.“Informatika va axborot texnologiyalari”- O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2006.B-37.
6. G‘.B.Shoumarov. “Muhabbat va oila”.T. Ibn Sino. 1994 yil 47-bet.
7. P.I.Ivanov “Umumiy psixologiya”-Toshkent, “O‘qituvchi”. 8. O.Sodiqova, S.Madaliyeva- “Psixologiya”-Toshkent-2010. B.248.